



2022- yilning yanvar-fevral oylari uchun Namangan viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Namangan viloyatida jami **698,9** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021-yilning mos davriga nisbatan **106,3 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.




Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.02.2021- yil	01.02.2022- yil	
Namangan viloyati	2302	2390	103,8
Mingbuloq	87	76	87,4
Kosonsoy	270	262	97,0
Namangan	128	127	99,2
Norin	118	131	111,0
Pop	92	117	127,2
To'raqo'rg'on	92	99	107,6
Uychi	211	228	108,1
Uchqo'rg'on	145	174	120,0
Chortoq	161	167	103,7
Chust	178	168	94,4
Yangiqo'rg'on	95	102	107,4
Namangan shahri	745	739	99,2
Shundan			
Davlatobod	161	201	124,8
Yangi Namangan		167	-

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **48,2** mlrd. so'mni tashkil etib, Jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 6,9 foizni tashkil etdi 2021- yilning mos davriga nisbatan **34,4** mlrd.ga ko'paygan.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Namangan shahriga (hududdagi jami yirik qurilish ishlari hajmining **74,6 %**) ga to'g'ri keldi




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 518,5 mlrd. so'mni tashkil etib 2021-yilning mos davriga nisbatan 1,0 % (foiz) punktga ko'payganini ko'rish mumkin.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **18,9** % ni tashkil etib **132,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning mos davriga nisbatan **102,2** % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **26,5** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib viloyatdagi ulushi **3,8** % ni va nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **672,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib viloyatdagi ulushi **96,2** % ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan baiarilgan qurilish ishlari




2022- yilning yanvar-fevral oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Namangan viloyati	698,9	106,3	516,7
Mingbuloq	29,1	160,7	21,5
Kosonsoy	44,5	93,9	32,9
Namangan	54,4	73,7	40,2
Norin	28,3	123,5	20,9
Pop	52,3	151,5	38,7
To'raqo'rg'on	47,3	85,8	35
Uychi	60,5	86,4	44,7
Uchqo'rg'on	36,5	122,7	27
Chortoq	48,8	136,0	36,1
Chust	28,2	72,8	20,8
Yangiqo'rg'on	36,2	87,8	26,8
Namangan shahri	232,8	122,5	172,1
Shundan			
Davlatobod	48,2	99,2	35,6
Yangi Namangan	52,6	94,6	38,9

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 32,0 mlrd so'mni tashkil etib, bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari umumiy hajmining 6,6 % ulushni tashkil etdi.

ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 318,2 mlrd so'mni tashkil etib, bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari umumiy hajmining 66,0 % ulushini tashkil etdi.

Norasmiy sektorlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 132,3 mlrd so'mni tashkil etib, bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari umumiy hajmining 27,4 % ulushini tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 15,6 mlrd so'mni tashkil etib, Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari umumiy hajmining 25,5 % ulushni tashkil etdi.

ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 45,7 mlrd so'mni tashkil etib, bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari umumiy hajmining 74,5 % ulushini tashkil etdi.







Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 5,5 mlrd so'mni tashkil etib, Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari umumiy hajmining 3,5 % ulushni tashkil etdi.

ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 154,6 mlrd so'mni tashkil etib, Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari umumiy hajmining 96,5 % ulushini tashkil etdi.

ulushi, % da



2021- yil
Yanvar-fevral-
fevral
mlrd.so'm

2022- yil
Yanvar-fevral
%



2022- yil
Yanvar-fevral

Namangan viloyatida qurilish ishlari

10